

YOSHLARGA MAFKURAVIY TARBIYA MAZMUNINI SINGDIRISH ORQALI “OMMAVIY MADANIYAT” TA’SIRIDAN HIMOYALASH

Jumaev E.T. -

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
dotsenti v.b. PhD.*

O‘zbekiston sharoitida mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifasi, xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot barpo etish yo‘lidagi asriy orzu-istaklari, maqsadlarini, milliy istiqlol mafkurasining mohi-yatini keng jamoatchilikka tushuntirish va ayniqsa yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir. Chunki, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boyluk hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o‘z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylukka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa-bunday davlat jahon taraqqiyoti yo‘lidan chetda qolib ketishi muqarrar. Bugun unib o‘sib kelayotgan yoshlarning har tomonlama barkamol avlod bo‘lib hayotga kirib borishida to‘sqinlik qilayotgan mafkuraviy, ma’naviy tahdidlar, ularning ko‘rinishi hamda oqibatlarini ilmiy asosda o‘rganish, xulosalar berish muhimdir. Mafkuraviy tarbiya jamiyatda avvalambor, oila maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, maktablar, litseylar, kollejlilar, oliy o‘quv yurtlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi faoliyatini mustahkamlagan holda uzluksiz ta’lim va tarbiyani faoliyatini, mafkuraviy tarbiya borasida aniq maqsad va vazifalarini belgilab olishda taklif hamda tavsiyalar beradi. Zero, mafkuraviy maqsadlarni ayniqsa yoshlar ongiga singdirish vazifasi asosan ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi[1, 85-b.].

Bugun masofalar qisqarayotgan, munosabatlar yaqinlashayotgan madaniyatlar mushtaraklashayotgan zamon tili bilan aytganda hamma narsa “globallashayotgan” davrda yashab turibmiz. Iqtisod hamda siyosatning globallashuvi madaniyatlar globallashuviga sabab bo‘lmoqda. Dunyo xalqlari o‘rtasidagi keng integratsion aloqalarga va hamkorlikka qurilayotgan hozirgi davrda turmush tarzi global munosabatlar ta’siridan chekkada qololmaydi. Global jarayonlar mohiyatga ko‘ra, xalqlarni yaqinlashtirishi va insonning hayot tarziga umuminsoniy manfaatlar nuqtai nazaridan ta’sir etishning omiliga aylanib bormoqda. Yoshlarga mafkuraviy tarbiyada ko‘proq Vatanparvarlik tushunchasini kengroq tushuntirish hamda tushunishni taqozo etadi. Shu sababli mafkuraviy tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqib, mafkuralar kurashiga oid “mafkuraviy kurash”, “mafkuraviy qarshi turish”, “informatsion xuruj”, “mafkuraviy diversiya”, “mafkuraviy qo‘poruvchilik” kabi tushunchalar ma’nosini yoshlar bilishlari kerak.

Yoshlar dunyoqarashida g‘oyaviy bo‘shliqlar paydo bo‘lishining oldini olish ularni turli mafkuraviy tahdid va tazyiqlardan asrash maqsadini amalga oshirish bo‘yicha takliflar

Yoshlarimizga berilayotgan har bir bilim va yangi ma’lumotlarni asl mohiyatini chuqur izohlab bergan holda, ularning maqsad va vazifalarini tushuntirish

O‘zbek xalqi tarixi, e’tiqodi, urf-odatlarini, milliy o‘ziga xosligi bilan bog‘liq lavha, ifodalarni nazaridan tahlilga torta bilish

O‘tilayotgan darslar jarayonida mustaqil hamda mustaqil o‘qishga tavsiya etilgan asarlardagi yoshlarimizga tahdid solayotgan yot mafkuralar, zararli g‘oyalarni inkor etadigan ularga zarba bera oladigan qarashlarni ilg‘ay olish va yuksak pedagogik mahorat, ilg‘or usullar vositasida tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish

Mazkur maqsadlarni amalga oshirishda talaba-yoshlar ruhiyatga his tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatgan holda yod g'oyalar, mafkuralar va ma'naviy tahdidlarga nisbatan nigilistik munosabatni uyg'ota oladigan metod va shakllarni izlab topish

Har bir o'tilayotgan dars va mashg'ulotlarni g'oyalar, fikrlar targ'ibotiga aylantirib, yoshlarni mashg'ulotlardan bezitmaslik, balki mukammal tahlillar, sharhlar orqali ongni zabt etish yo'lidan borish

O'rganilayotgan mavzuni hayotiyliigi va nazariy ahamiyati shundan iboratki, biz mafkuraviy kurash, informatsion xurujlar, ma'naviy tahdidlar davrida yashayapmiz, ishlayapmiz. Shu bois, bilim, g'oya, barcha o'qitilayotgan mavzularni hayot bilan bog'lash, daliliy isbotlar bilan tushuntirilishi lozim

1-rasm. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha takliflar.

Bugun turli yo'llar bilan, har xil "ezgu" niqoblar ostida "ommaviy madaniyat" mamlakatimizga ham tahdid solayotgani sir emas. Ayniqsa, jangari fil'mlar, yoshlarni soatlab o'tirishga "majbur" qilayotgan kompyuter o'yinlari beto'xtov yovuzlikni targ'ib esta, bolasining otasi kimligini bilmasdan boshi qotib DNK tekshiruvini o'tkazmoqchi bo'lgan ayollar haqidagi seriallar, internet olamida ayol hamda erkaklarga lazzatlanish haqida berilayotgan "eng yaxshi maslahatlar" faxsh hamda buzuqlik ko'chasi sari chorlaydi[2, 115-b.].

Buning ustiga estrada san'atiga kirib kelayotgan ayrim yo'nalishlar va qo'shiqlar, kliplar, yaratilayotgan kinofilmlar, reklama roliklarida targ'ib etilayotgan turlicha kiyinish va so'zlashuv "madaniyati" hamda umuman hayot tarzimizga to'g'ri kelmaydigan holatlarga yo'l qo'yilayotgani achinarli holatdir. "Ommaviy madaniyat kirib kelmaydi, avvalo juda kichik detallar, arziyas voqealar orqali odamlarni o'ziga o'rgatadi va ko'niktiradi. Ana shunda to'rt yoshdagi farzandimiz reper bo'lib kuylasa ham, o'g'limiz qulog'iga zirak taqib, qizimiz yirtiq shimni kiyganida ham "zamonaviy zayli" deya beparvo bo'lib turamiz. Qolaversa, farzandimizning zamonaviylikidan quvonib ham qo'yamiz[3, 152-b.]

Aslida "ommaviy madaniyat" soyasida kirib kelayotgan axloqsizlik, behayolik zo'ravonlik va buzuqlik kabi illatlar dunyodagi hech bir xalqning milliy madaniyatiga ham, umumbashariy qadriyatlarga ham mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Hususan, bizning zaminimizda tug'ilib o'sgan, jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga o'lgan hissa qo'shgan Imom Buxoriy, Burxoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz qoldirgan meros bugun ham dolzarbligini aslo yo'qotgani yo'q. Xalqimizning go'zal ma'naviy qadriyatlarga yo'g'rilgan or - nomus, uyat va andisha sharmu hayo kabi tushunchalari hayotimizga qadimdan singib ketgan.

Ayniqsa, ota - onaga hurmat, ayolga ehtirom, mardlik hamda jasurlik singari tuyg'ularimiz butun dunyo xalqlarini rom etib keladi. Mamlakatimiz aholisining katta qismini yoshlar tashkil etgani bois "ommaviy madaniyat" tahdidiga qarshi tura olish tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotir.

Xo'sh "Ommaviy madaniyat" nimasi bilan xatarli? "Ommaviy madaniyat" – ko'p hajmda sanoat usulida ishlab chiqariladigan madaniyat elementlarining umumjahon ehtiyojlarini qondiruvchi majmui-dir.

Bugungi zamonaviy fan "Ommaviy madaniyat"ning tub zamirida tijorat, moddiy manfaatdorlik borligini e'tirof etadi. Bu turmush tarzimizga ommaviy axborot-vositalari va boshqa vositalar orqali targ'ib-tashviq qilinadi, tarqatiladi hamda amalga oshiriladi. Ommaviy madaniyat mazmunini zamonaviy sanoat ishlab chiqarilishi, kino-televideniya, kitoblar, gazetalar, jurnallar, sport, turizm hamda boshqalar tashkil etadi. U mahsulotlarni iste'mol qilish-ommaviy iste'moldir, chunki mazkur madaniyatni iste'mol qiladigan auditoriya-katta zallar, stadionlar, kinoekran va televideniya ishqibozlaridan iborat bo'lgan ommaviy auditoriyadir.

"Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar:

“Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq”.

Qarang, qanday bebaho, olting teng so‘zlar!

Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya va “ommaviy madaniyat” degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma’nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo‘ladi.”

Bugungi kunda ko‘pchilik yoshlar odobni, kiyinish va muomala madaniyatini asosan ommaviy madaniyat orqali olishadi. Bunda reklama ham xizmat qiladi.

Yoshlar ta’lim-tarbiyasiga doimiy e’tibor qaratilib, ularning har tomonlama barkamol, Vatan ravnaqi uchun munosib hissa qo‘sha oladigan yuksak ma’naviyat va tafakkur sohiblari sifatida voyaga yetishi va kelajakda o‘z o‘rniga ega yetuk mutaxassislar bo‘lib shakllanishi borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, barcha ta’lim muassasalarining zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlanib, internetga ulangani yoshlarimizga o‘z bilimini boyitish uchun zarur ma’lumotlarni olish imkoniyati bermoqda.

Endilikda ularning chet ellardagi ta’lim muassasalari bilan aloqa o‘rnatish, xorijdagi ta’lim jarayoni bilan tanishishi hamda u yerda o‘qiyotgan tengdoshlari bilan virtual fikr almashishi oddiy holga aylandi. Yurtimizning barcha hududlarida internet klublari tashkil etilgan aholi, ayniqsa, yoshlarimizning mazkur tizimdan foydalanishi uchun qo‘lay sharoit tug‘dirdi[4, 166-b.]

Xalqimizning, millatning ma’naviyatini sog‘lomlashtirish bugungi kunda muhim zaruriyatga aylandi. Bu vazifani amalga oshirish uchun har bir insonning qalbini, tuyg‘ularini, hissiyotlarini tarbiyalash, ularni sergaklashtirish va loqaydlikdan chiqarish lozim.

Mustaqillik ma’naviyati asoslarini o‘quvchi va talabalarga o‘rgatish va ta’lim mazmunini eski usul bilan o‘qitib bo‘lmasligi hammaga ayon bo‘lib qoldi. Bu borada asosiy e’tibor – o‘quvchi va talabaga qaratilishi kerak. O‘quvchi – talabaning darsda faolligi ta’lim jarayonida mas’uliyatni his etishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining ijodkorligiga ko‘p jihatdan bog‘liq. O‘qituvchi o‘qish uchun muhit, sharoit, imkoniyat yaratadi. O‘quvchi talabaning qobiliyatiga yarasha bilim va ko‘nikma beradi.

Tabiiyki, har bir inson, jamiyat farzandi sifatida, olam hodisalarini anglash, o‘tmish voqealarini mushohada etish, eski xatolarni takrorlamay, yangi hayot bunyod etishda to‘xtovsiz izlanishi lozimdir. Tarixiy xotira ma’naviy va madaniy taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo‘lsa, asrlar davomida to‘plangan tajribalar insonning kamol topishi va milliy ongi shakllanishida zarur omil hisoblanadi. Axloqiy kamolot ma’naviy boylikda, amaliy bunyodkorlik faoliyatida, ijodiy mehnatda namoyon bo‘ladi va inson ma’naviyatida va ruhiyatida milliy ong sifatida ifodalanadi.

Xulosa va takliflar sifatida quyidagilarni aytish mumkin: bugungi teleradiokanallarni buraydigan, matbuot nashrlarini, varaqlaydigan bo‘lsangiz yoki internet “changalzorlari” bo‘ylab “sayyohat” qiladigan bo‘lsangiz, hech shubhasiz, foydali axborotlardan ko‘ra, zararli axborotlarga doimo duch kelasiz. Ayniqsa, hayotiy tajribaga ega bo‘lmagan yoshlar bu axborotlarni real haqiqat sifatida qabul qilish yolg‘on hamda uydirma gaplarga aldanib qolishi mumkin. Shu tariqa ularning hayoti arzimagan bir axborot tufayli butunlay noma’qul tomonga burilib ketishi hech gap emas. Shuning uchun ham bugungi kunda yoshlarning qalbi hamda ongida axborot immunitetini tarbiyalashimiz lozim.

“Ommaviy madaniyat” yoshlarning hayotini butunlay zaharlaydi va ularni o‘z tarixi, milliy qadriyatlari hatto ota-onasini tanimaydigan manqurtga aylantirib qo‘yadi. Bizning qalbimizdan milliy o‘zlik tuyg‘usi va vatan hissini siqib chiqarmoqchi bo‘ladi. “Ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashning eng samarali yo‘li yigit-qizlarimizni yoshligidan boshlab yuksak madaniy saviya, did va farosat egasi, mustaqil fikrlaydigan va ma’rifatli qilib tarbiyalashdan iborat.

"Ommaviy madaniyat" bizning milliy tabiatimiz, ko'xna qadriyatlarimiz, insoniy intilishlarimizga ziddir. Shuning uchun ularga qarshi jamiyatimiz hamjihatlikda kurash olib borishi lozim. Shundagina yosh avlodimizni har tomonlama sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazishga erishishimiz mumkin bo'ladi.

"Ommaviy madaniyat" niqobidagi istilochilikka qarshi kurashda o'zbek xalqida kuchli immunitet mavjud. Ammo bu taskin oldimizda turgan real xavfni mensimaslik yoxud bemalolchilikka asos bo'lolmaydi. Binobarin, turli xuruj va g'arazli intilishlar, xorijiy markazlar tomondan kata kuch, mablag'lar sarflanayotgan harakatlar va shu kabi xavf-xatarlar bizga qanday zararli oqibatlar olib kelishidan oqox bo'lishimiz darkor.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. - T: «O'zbekiston», 2016.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.-T., 2008.-46 b.
4. T.Sazern va M.Xoffenberg "Kendi"- AQSh-1964 yil

REZYUME:

Maqolada yoshlarga mavkuraviy tarbiya mazmunini singdirish ularning dunyoqarashida g'oyaviy b'ishliqlar paydo b'lishining oldini olish, turli mafkuraviy, ma'naviy tahdidlar va taziyiqlardan asrash, hamda ommaviy madaniyat ta'siridan himoyalash maqsadida amalga oshirilishi lozim b'lgan bir qator vazifalar va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, ma'naviyat, mafkura, tarbiya, ommaviy madaniyat, ta'sir, himoya, maqsad, ezgulik, vazifa, burch, e'tiqod, vatanparvarlik.

РЕЗЮМЕ:

В статье представлен задачи, которые должны быть реализованы в целях недопущения возникновения идейных пробелов в мировоззрении молодежи, защиты ее от различных идеологических, духовных угроз и репрессий, а также воздействия массовой культуры.

Ключевые слова: молодежь, духовность, идеология, воспитание, массовая культура, влияние, защита, цель, благородство, задача, долг, вера, патриотизм.

RESUME:

The article presents a number of tasks and proposals that should be carried out in order to integrate the content of the abstract education into the youth in order to prevent the emergence of ideological gaps in their worldview, to protect them from various ideological, moral threats and protests, as well as from the influence of mass culture.

Keywords: youth, spirituality, ideology, ideology, mass culture, influence, protection, purpose, nobility, task, duty, faith, patriotism.